



## SOYANING FOTOSINTETIK FAOLYATI VA HOSILDORLIGIGA MINERAL O'G'ITLAR TA'SIRI

---

**M.Nazarov** - Farg'ona davlat universiteti  
Ekologiya kafedrasi professori.

**T.E.Usmanova** - Farg'ona davlat universiteti  
Ekologiya kafedrasi o'qituvchisi.

**M.G.Maxsudova** - Farg'ona davlat universiteti  
Ekologiya kafedrasi o'qituvchisi

**A.Nabiyeva** – Ekologiya va atrof-muhit muhofazas  
yo'nalishi II-bosqich talabasi.

**Annotatsiya.** Butun dunyoda oqsil taqchilligi hukm surayotgan bugungi kunda, soya donining oqsilga boyligi, oqsili tarkibida inson uchun foydali aminokislotalarning barchasi mavjudligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, soya donining ahamiyatini yanada oshiradi. Soyanning afzalligi lizin, metionin, arginin, leysin va boshqa eng zarur aminokislotalarga boyligi bo'yicha qator oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha olishini alohida ta'kidlash zarur.

**Аннотация.** В наши дни, когда во всем мире царит дефицит белка, богатство соевых бобов белком, наличие в их белке всех полезных для человека аминокислот, приобретает особое значение, что еще больше усиливает значение соевых бобов. Преимущество тени-лизин. стоит особо отметить, что по богатству метионина, аргинина, лейцина и других незаменимых аминокислот он может сравниться с рядом продуктов питания.

**Kalit so'zlar:** Soya, oqsil, lizin, metionin, aminokislolar, oziq-ovqat, darmondorilar, go'sht, sut, tuxum, hosildorligi, marganes, oltingugurt.

**Ключевые слова:** соя, белок, лизин, метионин, аминокислоты, продукты питания, медикаменты, мясо, молоко, яйца, фертильность, марганец, сера.

**Kirish.** Soya ekiladigan ko'p davlatlarda ushbu ekin yagona oqsil manbai bo'lib, chorvachilikni ham to'yimli oziqa bilan ta'minlaydi va uning mahsulorligini oshiradi. Soya doni tarkibi yuqori sifatli aminokislolar bilan ta'minlanganlik jihatidan go'sht, sut, tuxum kabi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha oladigan 28-52% oqsil, 18-27% ekologik toza o'simlik moyi, ko'plab mineral tuzlarni, darmondorilarni saqlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Soya (Glycine max (L.) Merrill) yoki «oltin dukkak» uning oziq-ovqatda va chorvachilikda



qo‘llanishi bo‘yicha yer yuzidagi muhim o‘simlikdir. Hosildorligi tuproq-iqlim sharoitga bog‘liq holda katta intervalda o‘zgaruvchan. Masalan, 2007 yilda Tojikistonda 0,82 t/ga, Hindistonda 1,23 t/ga, Turkiyada 3,50 t/ga ni tashkil qilgan. Eng yuqori hosil shu yilda Turkiyada, Misrda, Italiyada 3,3-3,6 t/ga olingan. Bu asosiy soya yetishtiradigan davlatlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan: AQSH, Braziliya va Argentinada-2,8-2,9 ga to‘g‘ri kelgan. Temir xlorofillning tarkibiy qismi va nafas olish hamda fotosintez jarayonida muhim. Oltingugurt xlorofill shakllanishida qatnashadi va soya bu davrda oltingugurtni ko‘p o‘zlashtiradi. Marganes yetarli bo‘lmasa, dukkaklarda urug shakllanmaydi. Almashlab ekishda soya uchun begona o‘tlardan eng toza dalani tanlash lozim. Sholichilik institutida, soya sholi bilan almashlab ekiladi. Tajribada soya uchun o‘tmishdosh sholi o‘simligi bo‘ldi. Aprel oyi boshlarida “Baraka” navi ekildi. Oldingi bajarilgan ilmiy ishlarning natijalarida aniqlangan maqbul ekish me’yorlariga amal qilinib: “Baraka” navi gektariga 332 ming dona unuvchan urug‘ - 56,5 kg/ga, ekiladi. Ekish chuqurligi 4-5 sm. Ekishdan oldin dasturda belgilangan mineral o‘g‘itlar foni tashkil qilindi. bunda azot 50 kg, fosfor 100 kg va kaliy 75 kg qo‘llanildi. Ekish usuli keng qatorlab, qator orasi 60 sm, tup orasi 10 sm. Tajriba dalasi amal davrida 4 marta sug‘orildi, 2 marta chropiq va 3 marta kultivasiya qilindi. O‘simlikdagi organiq moddalar barg faoliyati va ildiz orqali yetkazib beriladigan mineral moddalar evaziga hosil bo‘ladi. To‘planadigan organiq moddalarning asosiy ulushi 95% gacha bargda o‘tadigan fotosintez jarayoniga va 5-10% ildiz faoliyatiga bog‘liqdir. Barg yuzasining shakllanishiga, rivojlanishi o‘simlikning o‘sish va rivojlanish sharoitiga hamda qo‘llaniladigan agrotexnik tadbirlarga bog‘liq bo‘ladi. “Baraka” navining shonalash davrida nazorat variantda barg yuzasi  $315 \text{ sm}^2$  bo‘lganligi kuzatildi. Fon variantida  $70 \text{ sm}^2$  ga, 3-variantda  $75,4 \text{ sm}^2$ , 4- variantda  $106 \text{ sm}^2$ . O‘g‘it foni evaziga barg yuzasi bir tup o‘simlikda  $178 \text{ sm}^2$  ga oshgan. Oltingugurt evaziga barg yuzasi nazorat variantiga nisbatan 187, 335 va  $180 \text{ sm}^2$  ga oshganligi kuzatildi. Eng yuqori ko‘rsatkich oltingugurning ikkinchi me’yorida olindi. Temir elementi evaziga barg yuzasi nazorat variantiga nisbatan 138, 128, va  $118 \text{ sm}^2$  ga past bo‘lganligi aniqlandi.

**Xulosa:** Dukkaklanish davrida barg yuzasi bir tup o‘simlikda nazorat variantida  $1810 \text{ sm}^2$  ga teng bo‘lib, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilganda  $178 \text{ sm}^2$  ga oshgan. Mineral o‘g‘itga oltingugurt qo‘sib soya oziqlantirilganda, barg yuzasi nazoratga nisbatan  $240 \text{ sm}^2$  ga oshdi, mineral o‘g‘itga marganes qo‘sib soya oziqlantirilganda, barg yuzasi nazoratga nisbatan  $187 \text{ sm}^2$  ga oshdi, mineral o‘g‘itga temir qo‘sib soya oziqlantirilganda barg yuzasi nazoratga nisbatan  $110 \text{ sm}^2$  ga oshdi. Bir gektarda barg yuzasi nazorat variantida  $22,0 \text{ ming m}^3/\text{га}$  to‘g‘ri keldi. Mineral o‘g‘itlar evaziga 6,0



ming m<sup>3</sup>/ga oshdi. Mineral o‘g‘itlar evaziga don hosili nazorat variantiga nisbatan 6,2 s/ga oshdi. Mineral o‘g‘itlarga oltingugurt qo‘sib oziqlantirilganda don hosili 11,2 s/ga, marganes qo‘shilganda 14,2 s/ga va temir elementi qo‘shilganda 7,2 s/ga oshganligi kuzatildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nazarov M va boshqalar. Dexqonchilikda sof maxsulotlar yetishtirish texnologiyasi. Farg‘ona. 1995 y.
2. Mirzajonov K.M, Nazarov M va boshqalar. Tuproq muhofazasi. Toshkent. “Fan va texnologiya”. 2004 y.
3. Nazarov M. Moybob ekinlarni parvarishlash. Farg‘ona. 1992
4. Nazarov M. Va boshqalar. Dehqonchilikda sof mahsulotlar yetishtirish texnologiyasi. Farg‘ona 1984
5. Mannanova M. Ekma burchoq-qurg‘oqchil tuproq ekini. Dehqonchilik muammolari, tadqiqot va yechimlar. O‘ZPITI Farg‘ona filiali xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Farg‘ona nashriyoti, 2008 y.
6. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY: <https://doi.org/10.47100/conferences. v1i1. 1365>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
7. Akhmedova, D. M., & Maxsudova, M. G. (2021). The role of moisture as an ecological factor in growth of cotton plants. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1093-1098.
8. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). Morphology of the pollen of some cotton species and hybrids. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 84-87.
9. Gulnoraxon, M. (2023). FARG’ONA VODIYSI AHOLISINING TABIATDAN TEJAMLI FAYDALANISH AN’ANALARI. *Journal of new century innovations*, 20(4), 8-13.